



## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Xo'jamova Zarina G'ayratjon qizi

Rayimova Mahliyo Muzaffarovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar kasb-hunar maktabi o'qituvchilari

Ro'ziyev Aziz

Navoiy viloyati Zarafshon shahar kasb-hunar maktabi yoshlar yetakchisi

**Annotatsiya:** *Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga taminlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalar va ularning asosiy xususiyatlari haqida mulohaza yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** pedagogika, texnologiya, ta'lif, e'tibor, metod, ma'naviyat, tarbiya, dunyoqarash, maqsad, interfaol.

Mustaqil O'zbekistonning xalqparvar siyosati natijasida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-siyosiy, etnik-madaniy hayotida kun sayin jiddiy o`zgarishlar bo`lmoqda. Jamiyatimiz moddiy va ma'naviy rivojining yangi omillari xalqning milliy o`z-o`zini anglashda samarali ta'sir ko`rsatayapti. Mamlakatimiz hayotining barcha tomonlarini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish xalqimiz madaniy kuch-qudratini ma'naviy jihatdan tiklash, g'oyaviy jihatdan yangilash va o`z-o`zini anglashdan iborat muhim vazifalarni qo`ymoqda.

So`nggi yillarda ta'lif sohasiga, xususan, uning ajralmas qismi hisoblangan o'qituvchilarga bo`lgan e'tibor, shubhasiz, ancha o`zgardi. Shuning uchun ham bugungi kunda bu kasbni egallashni xohlovchi yoshlar soni kundan-kunga oshib bormoqda.

Ta'limga sarflanadigan xarajatlar ijtimoiy taraqqiyotning asosiy ko`rsatkichlaridan biri hisoblanadi, chunki ular davlat va jamiyat tomonidan fuqarolar ta'limga qaratilayotgan e'tibor darajasini aks ettiradi. Ta'limga investitsiyalar mamlakatning inson kapitalini yuksaltirish va iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini yaxshilaydi; ta'lif odamlarning dunyoqarashini kengaytiradi, o`z-o`zini anglash imkoniyatini beradi.

Ta'lifning maqsadi, jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanishdir. Shunday ekan, ta'lif-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'lifning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinali foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'lifiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi.

Ta'lif shakllari, usullari, uslubiy tizimlari xususiy metodikalar ko'rinishida har xil bo`lgan bo'lib, ular takomillashtib borishi jarayonida texnologiyaga ko'chib o'tadi.



Texnologiya universal xususiyatga ega bo'lib, uni har bir mutaxassis tomonidan amalga oshirish, bir xil darajada bajarish va ko'zda tutilgan maqsadga erishish mumkin. Uning metodikadan asosiy farqi shundaki, metodika o'qitish usullari va yo'llarining ma'lum shaxs uchun qulay bo'lgan majmuadan iborat. Metodika o'qituvchining bilim, ko`nikmalari, mahorati, shaxsiy sifatlari, temperamentiga bog'liq. Buni dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi bilan turli xususiy fanlarni har xil didaktik vositalardan foydalangan holda jadal (intensiv) o'qitish metodikalari orasidagi farqni solishtirishda ko'rish mumkin.

Shu asosda texnologiyalarning asosiy mezonlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Ma'lum ilmiy asosga, konsepsiya tayanish.
2. Tizimlilik, o'quv-tarbiya jarayoni va uning tarkibiy qismlarining o'zaro mantiqiy bog'liqligi.
3. Samaradorlash, ta'lim standartlariga erishishni kafolatlashi, talab qilinadigan vaqt, kuch va vositalarning me'yor darajasida ekanligi.
4. Boshqalar tomonidan qayta amalga oshirish mumkinligi.

Ta'limning kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonini yaratish yo'lidagi dastlabki qadam 1960 - yillarda yaratilgan dasturlashtirilgan ta'lim bo'lgan edi, Bunda o'quvchi to'liq o`zlashtirishga erishguncha bajarishi lozim bo'lgan barcha vazifalar aniq ketma-ketlikda, batafsil ishlab chiqilgan dastur tuziladi. Bu dastur ta'lim maqsadida ko'zda tutilgan darajadagi bilim va ko'nikmalarni har bir o'quvchi o`zlashtirishini kafolatlashi lozim. O`zlashtirish jarayonining borishi haqida o'qituvchi bilan birga o'quvchining o`ziga ham axborot yetib turadi. O'quvchi mantiqiy bog'langan qisqa vazifalarni ma'lum ketma-ketlikda bajarish orqali deyarli xatolarsiz asosiy maqsadga yetib bora oladi. Bunday texnologiya o'quv jarayonini to'liq nazorat qilish imkoniyatini beradi. Bunda mantiqiy bog'langan qisqa vazifalar, ketma-ketlik ta'lim jarayonining algoritmini hosil qiladi. O'quvchi va o'qituvchi faoliyatining shunday algoritm asosida tashkil qilinishi ko'zda tutilgan maqsadga erishishni kafolatlaydi. Ta'lim jarayonining shunday tartibda tashkil qilinishini hozirda to'liq ma'noda pedagogik texnologiya deb atash mumkin.

Pedagogik texnologiya ta'lim oluvchilar va tarbiyalanuvchilarga pedagoglar tomonidan kasbiy-pedagogik maqsadlarni amalga oshiruvchi ta'sir ko'rsatilishini tashkil qilish tizimini belgilaydi. Pedagogik texnologiya pedagogik faoliyatni aniq maqsadlar asosida tashkil qilish hamda uning texnologikligini nazorat qilish imkoniyatini beradi. Pedagogik texnologiya tizimi pedagogik maqsadlarning aniq amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Texnologik tizimning asosiy belgisi kutilgan natijaga erishishni kafolatlashdir. Buning uchun asosiy maqsadga erishishning har bir bosqichida bajarilishi lozim vazifalar, buning uchun talab qilinadigan vositalar hamda metodlarning aniq modullari yoki algoritmlari hosil qilinadi.

Ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning o'quv-tarbiya jarayonida avvaldan belgilangan sifatlarning shakllanishiga olib keladigan izchil amaliy faoliyatlarini pedagogik texnologiya deb hisoblash mumkin. Pedagogik texnologiya (yoki ta'lim texnologiyasi) boryogi va eng asosan ta'lim oluvchi yoki tarbiyalanuvchining ta'lim-tarbiya jarayonida qanday faoliyatni va qay darajada amalga oshirishidan iborat. O'quvchining o'rganilayotgan



materialni sifatli o'zlashtirishini ta'minlovchi izchil amaliy faoliyatni ta'lim texnologiyasi bo'lishi mumkin.

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talaba (yoki o'quvchi)larni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul talaba (yoki o'quvchi) larda mustakil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalgalashish imkoniyatining kengligida.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamонавиyl o'qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlar, tajriba talaba (yoki o'quvchi)larni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. G'oziev E. Pedagogik texnologiyaning psixologik asoslari. – «Xalq ta'limi», 1999- yil 6-son
2. J. G'. Yo'ldosheva, F. Yo'ldosheva, G'. Yo'ldoshev "Interfaol ta'lim sifat kafolati" T. 2008.
3. Hasanboev J ., To'raqulov X ., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N . Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.: "Fan va texnologiya". 2009
4. R.A. Mavlonov, M. Arabova, G'. Salohitdinova "Pedagogik texnologiya" T. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. "Fan" nashriyoti. 2008
5. N.N. Azizzoxojaeva. "Pedagogik tehnologiya va Pedagogik mahorat" Toshkent. "AvtoNashr" 2006 y.